

IJTIMOYIY DAVLAT BARPO ETISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Egamova Maqsadoy Karimovna
Abduvoyitova Gulbahor Xayrulloevna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Koreys tili filologiyasi talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13132941>

Annotatsiya. Hozirgi globallashuv davrida ijtimoiy davlat barpo etishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish juda zarur bo'lib, xorijiy bilimlar asoslarini o'zlashtirish, zamonaviy ta'limdagi mavjud tushunchalar to'g'risida nazariy g'oyalarni, dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalaridagi rivojlanish jarayonini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy maqsadimiz: xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasidagi tajribalarini o'rganib, tahlil qilib, ushbu yo'nalishdagi asosiy muammolarini anglash, mustaqil fikrlash va tarixiy davlatlararo ko'nikmalarni shakllantirish.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy, globallashuv, tashqi siyosat, ta'lim, xorijiy tajriba, salohiyat, davlat, xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, turizm, madaniyat, mintaqaviy va xalqaro.

THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN ESTABLISHING THE WELFARE STATE

Abstract. In the current era of globalization, it is very necessary to study the experience of foreign countries in the establishment of a social state, to master the basics of foreign knowledge, to analyze theoretical ideas about the existing concepts in modern education, and to analyze the development process in different countries and regions of the world. Our main goal is to study and analyze the experiences of foreign countries in the field of education, to understand their main problems in this direction, to form independent thinking and historical interstate skills.

Keywords: Social, globalization, foreign policy, education, foreign experience, authority, state, security, economy, investment, tourism, culture, regional and international

ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В СОЗДАНИИ ГОСУДАРСТВА БЛАГОСОСТОЯНИЯ

Аннотация. В современную эпоху глобализации весьма необходимо изучить опыт зарубежных стран в становлении социального государства, овладеть основами зарубежных знаний, проанализировать теоретические представления о существующих концепциях в современном образовании, а также проанализировать процесс развития в разных странах и регионах мира. Наша главная цель – изучить и проанализировать опыт зарубежных стран в сфере образования, понять их основные проблемы в этом направлении, сформировать самостоятельное мышление и исторические межгосударственные навыки.

Ключевые слова: Социальное, глобализация, внешняя политика, образование, зарубежный опыт, власть, государство, безопасность, экономика, инвестиции, туризм, культура, региональная и международная.

Hozirgi zamonda rivojlangan mamlakatlarda global miqyosda shiddatli o'zgarishlar yuz berib, xalqaro maydonda kuchlarning yangi nisbati shakllanib bormoqda. Shu bilan birga, xalqaro maydonda yangi tahlikalar paydo bo'lishiga olib keldi, bu esa dunyo davlatlarini yuzaga kelayotgan muammolarga munosib yechim topish, siyosiy va iqtisodiy strategiyalarni yangilashga

majbur qilmoqda. Dunyodagi jarayonlar mamlakatimiz rahbari tomonidan O‘zbekistonning tashqi siyosiy kuchini belgilash va amalga oshirishda chuqur tahlil qilinmoqda. Xalqaro maydondagi vaziyat va yuzaga kelayotgan har qanday tahlikadan qat’iy nazar, davlatimiz mustaqilligi va suvereniteti, xavfsizligi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda barcha fuqarolarimiz farovonligi ishonchli tarzda ta’minlanib keladi.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Konstitutsiyamizda “O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlash g‘oyasini ilgari surdi. O‘z navbatida, davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bu g‘oya yanada mustahkam, ijtimoiy davlatni barpo etishning ustuvor yo‘nalishlari davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berildi.

Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modeli hisoblanib, mazkur model hozirgi vaqtda Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Italiya, Belgiya, Daniya, Finlandiya, Germaniya, Portugaliya, Ispaniya, Avstriya, Gretsiya, Yaponiya, Niderlandiya, Shveysariya, AQSh kabi davlatlarda keng qo‘llanib kelinmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli kitobida “O‘zbekiston — ijtimoiy davlat” tamoyilining ayni ustuvor yo‘nalishlari batafsil ifoda etilgan. Xususan olib borilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatimiz aholisi uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya va sog‘lom ekologik muhit yaratish, iqtisodiyotni mustahkamlash, ijtimoiy, huquqiy, ekologik va boshqa sohalarni rivojlantirish istiqbollari o‘z ahamiyatini kasb etib bormoqda.

Shu ma’noda, mamlakatimizda 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi inson qadrini ulug‘lashga xizmat qiladigan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yoqlab ovoz bergani tahsinga sazovor. Chunki davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “inson qadri – mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayotni, fundamental huquq va erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta’lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog‘lom ekologik muhit ta’minlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi”. Endilikda Asosiy qonunimizda davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar ko‘paydi. Eng muhimi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda birinchi marta “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” (1-modda)¹, degan norma belgilandi. O‘zbekiston uchun dunyoning Rossiya, AQSH va Xitoy kabi yetakchi davlatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlangan mamlakatlar, xususan, Koreya Respublikasi va Yaponiya, Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi, arab-musulmon hamda turkiy tilli davlatlar bilan o‘zaro manfaatli, samarali va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonning dunyodagi boshqa yetakchi mamlakatlar bilan munosabatlari ham jadal va o‘zaro manfaatdorlik asosida rivojlanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil may oyida Vashingtonga rasmiy tashrifi Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan o‘zaro munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2011

Mazkur uchrashuvda davlat rahbarlari “Strategik sheriklikning yangi davri boshlanishi to‘g‘risida”gi qo‘shma bayonotni qabul qildilar va o‘z sa‘y-harakatlarini hamkorlikning o‘zaro manfaatli sohalarini rivojlantirishga kelishib olindi. Shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy baholandi va qo‘llab-quvvatlandi. Bu O‘zbekistonning reytingi va xalqaro imijiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. O‘zbekiston Prezidenti ta‘biri bilan aytganda, “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir”.

Ya‘ni:

-ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo‘lgan iste‘mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo‘yilishini nazarda tutadi;

-ijtimoiy davlat shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta‘minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishni talab qiladi;

-ishsizlikdan himoyalash, kafolatlangan sifatli ta‘lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir;

-yashash uchun zarur resurslar – ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, transport va boshqa qulayliklar bilan ta‘minlanish, majburiy mehnatga taqiy qo‘yish ham ijtimoiy davlatda muhim ahamiyat kasb etadi;

- ijtimoiy davlatda hech kim e‘tibordan chetda qolmaydi, o‘z muammolari bilan yolg‘iz tashlab qo‘yilmaydi. Shuningdek xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyaviy islohotlarida “birdamlik” tamoyilini hayotga keng tatbiq etish, huquqiy, ijtimoiy davlat qurish, adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, inson kapitalini rivojlantirish orqali jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda².

Tashqi siyosat qanday asosiy vazifalarga yechim topish kerakligini ham ko‘rib chiqish lozim. Ulardan eng muhimi davlat va jamiyatning muvaffaqiyatli ichki rivojlanishi, islohotlarni amalga oshirish, aholi turmush farovonligining oshirishini ta‘minlash, hayot sifatini ko‘tarish uchun qulay tashqi sharoitni yaratish hisoblanadi.

Ikkinchi vazifa — O‘zbekiston atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish. Aynan mamlakatimiz joylashgan mintaqadagi xavfsizlik barqaror rivojlanishning eng asosiy shartidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari — bizning bevosita qo‘shnilarimiz bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashni asosiy ustuvor tashqi siyosiy yo‘nalish sifatida belgilab berdi. O‘zbekiston rahbari tashabbusi asosida so‘nggi uch yilda mintaqaning barcha mamlakatlari bilan oliy darajadagi tashriflar almashinuvi amalga oshirildi. Mintaqa davlatlari yetakchilari o‘rtasidagi siyosiy muloqot o‘zaro ishonchga asoslangan muntazamlik va doimiylik kasb etdi. Bunday muloqotlar davomida Markaziy Osiyo davlatlarini qiziqtiradigan xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiya, turizm, madaniyat, sog‘liqni saqlash va ekologiya sohalarida

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz – T.: O‘zbekiston, 2016

mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik muhim qo'shma qarorlar qabul qilinmoqda. Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e'tibori bu yo'ldagi say harakatlari bilan o'lchanadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuniga bo'lgan e'tibor rivojlangan mamlakatlardagi shart –sharoitlarga yetib bormoqda. Ta'limchalik hech bir yo'nalish mamlakatni tez rivojlantira olmaydi, shu boisdan mamlakatimizda ham ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda, zero “ta'limga e'tibor – kelajakka e'tibor”. Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz boshqa sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham rivojlangan davlatlar tajribalaridan unumli foydalanmoqda.

Xususan, Ilg'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihatlari, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir etadi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo'lgan yagona davlat hisoblanadi.

Amerika maktablaridagi o'ziga xos usullaridan biri har bir o'quvchining, “Hisobot kartasi” yuritilishidir. Unda o'quvchi 10 xil xatti -harakati bo'yicha baholanadi. Ota-onalar ushbu karta bilan tanishib borar ekan, farzandlariga oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi.

Amerika pedagoglari haftasiga bir marta 1-3-sinf o'quvchilari uchun “Sevimli o'yinchoq” metodini qo'llashadi. Bu metodda bolalar o'yinchog'ini tariflaydi. Mazkur metodni qo'llashdan maqsad bolani uyatchanlikdan xalos bo'lishga, sinfdoshlari orasida erkin gapirishga o'rgatishdir.

Amerikada ta'limni haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli boy moddiy baza va tajribaga ega bo'lgan davlatda butunlay savodsiz bo'lgan bolalar ham topiladi. AQSH da ta'lim tizimining maqbul tomonlarining ijobiy qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi³.

Germaniya jahon ma'rifat va madaniyat o'choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Maktab ta'lim tizimi boshlang'ich va o'rta ta'lim muassalaridan iborat.

Barcha davlat maktablarida o'qish bepul. Germaniyada maktab ta'limi quyidagi maktab tiplariga bo'linadi: boshlang'ich maktab; yo'nalish maktablari; asosiy maktab; real maktab; gimnaziya; umumiy maktab; maxsus maktab. Boshlang'ich maktab ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi.

Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish maktabga o'tishadi. Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziyaga bormagan barcha o'quvchilar uchun majburiydir. Asosiy maktab o'qituvchilari o'zlarini o'qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi.

³ Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilmfan (metodik qo'llanma). Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son

Lekin asosiy maktabdagi o'quvchilar yomon o'zlashtirishiga qaramasdan kasbiy ta'lim olishiga majbur bo'lishadi. Real maktablar ikkinchi bosqichga qarashli bo'lib, odatda 5-10-sinflarni o'z ichiga oladi. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mas'uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmalariga yuqori talab qo'yadigan kasb egalari bo'lishi uchun kasbiy ta'lim kurslariga tayyorlaydi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o'rin olishda o'zini oqlab kelayotgan ta'lim tizimi mavjud⁴.

Fransiyada ta'lim sifati ta'lim, sport va tadqiqotlar bo'yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu bosh inspeksiya 4 ta vazirlik uchun faoliyat ko'rsatadi. Bosh inspeksiya 4 ta vazifani bajaradi: 1. Qo'llab-quvvatlash - ta'lim, fan, sport, madaniyat boshqaruv idoralarini oliy ta'lim rektoratlarini. 2. Ekspertiza qilish - vazirliklar, idoralar, shartnomalar, rahbarlar faoliyati, xizmatlar, tuzilmalar va boshqalar. 3. Baholash - tashkilotlar, muassasalar, tuzilmalar, ijtimoiy siyosiy ahvol, kadrlar. 4. Nazorat qilish - tashkilotlar, muassasalar, xizmatlar va kadrlar.

Bosh inspeksiyada to'planadigan tajribalarning xilma –xilligi, bolalar bog'chasidan doktoranturaga qadar davlat siyosatini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim, fan va yoshlarni rivojlantirishga, o'quvchilarni sport, jamiyat hayoti va jamoat o'qishiga jalb etishga ta'sir qiladi⁵.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlarni o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yuqotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyusiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Bu bizning ta'lim tizimimizda, chet elda o'quv tarbiya ishlarining qo'yilishiga etibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2011
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz – T.: O'zbekiston, 2016

⁴ G.Anorqulqova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son

⁵ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – T.: O'zbekiston, 2022

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi – T.: O`zbekiston, 2022
4. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta’lim, ilmfan (metodik qo`llanma). Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son
5. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimining o’ziga xos yo’nalishi uslub va tahlili. Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son
6. Yo’ldoshev J.F. Xorijda ta’lim (metodik qo’llanma) - Toshkent: 1995- yil.